O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

BADIIY MATNDA QO‘LLANGAN METAFTONIMIK BIRLIKLARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI

COGNITIVE CHARACTERISTICS OF METAPHTONYMIC UNITS IN LITERARY TEXTS

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/WTYD6355

Muzaffarova Zarrina Umarjon qizi
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
zarinamuzaffarova891@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisda murakkab lingvokognitiv hodisalardan biri sifatida talqin qilinadigan metaftonimiyaning jahon tilshunosligida o‘rganilishi bilan bog‘liq nazariy qarashlar tahlil qilinadi. Unda metafora va metonimiyaning o‘zaro munosabati hamda ularning konseptual integratsiyasi masalasiga doir ilmiy yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Metaftonimiya hodisasining shakllanishi va namoyon bo‘lishida metaforik va metonimik mexanizmlarning o‘zaro ta’siri yuzasidan ilgari surilgan nazariy fikrlar umumlashtirilib, mavjud qarashlarning asosiy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, metaftonimiyaning kognitiv tabiati va uning metafora hamda metonimiya bilan aloqadorligi xususida tegishli ilmiy xulosalar bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar. *Metonimiya, metafora, kognitiv jarayon, integratsiya, o‘xshatish, metaftonimiya.*

Annotation. *This thesis analyzes theoretical views related to the study of metaphtonymy in world linguistics, which is interpreted as one of the complex linguocognitive phenomena. It examines scientific approaches to the relationship between metaphor and metonymy, as well as their conceptual integration. The theoretical ideas put forward regarding the interaction of metaphorical and metonymic mechanisms in the formation and manifestation of the phenomenon of metaphtonymy are summarized, and the main aspects of existing views are highlighted. Relevant scientific conclusions are also presented regarding the cognitive nature of metaphtonymy and its relationship with metaphor and metonymy.*

Keywords. *Metonymy, metaphor, cognitive process, integration, analogy, neighborhood, metaphthonymy.*

Bugungi kunda zamonaviy bilim tarmoqlarining rivojlanishi o‘z navbatida ijtimoiy sohalarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Xususan, ijtimoiy gumanitar yo‘nalishlarning markazida turuvchi tilshunoslik fani doimiy rivojlanishda va qamrov ko‘lami ham kengayib bormoqda. Bu o‘zgarishlar uning barcha birliklariga, xususan, markaziy qismni tashkil etuvchi semantik darajasiga ham bevosita ta’sir qiladi. Atrofimizdagi voqealarni anglash, ularni idrok qilishda bizga yordam beruvchi til vositalari bisyor. Shunday vositalardan hisoblanmish metonimiya va metafora nomli ko‘chim turlari mavjud. Bir qarashda tilshunoslikda metafora va metonimiya, chuqur qamrab olingan ko‘plab hodisalarni o‘rganish doirasini sezilarli darajada kengaytiradi. Kognitiv lingvistikada kontseptual metafora va metonimiya mavjud. Bu shakllangan ruhiy mexanizmlardir. Ikki tushunchaning o‘zaro ta’siri jarayonida o‘xshashlik yoki assotsiatsiyalarga asoslangan qo‘shnichilik munosabatlari yuzaga keladi[Шарманова,2011:194]. Tilshunoslikning ushbu sohasida metafora va metonimiya oddiy tasvir vositasi emas, balki insonning borliqni anglash va ushbu bilimlar asosida xulosa chiqarish jarayonlarida ishtirok etuvchi kognitiv mehanizm sifatida baholanadi. Metafora konseptula sohalar o‘rtasidagi o‘xshashlik asosidagi bog‘lanishni yuzaga keltirsa, metonimiya bir konseptula soha doirasidagi yaqinlik asosida bir elementning boshqa elementni faollashtirishini ta’minlaydi. Ushbu ikki kognitiv mexanizmning o‘zaro ta’siri natijasida metaftonomik konseptualizatsiya yuzaga kelishi mumkin. Ushbu hodisalar tilshunoslik nuqtayi nazaridan juda ko‘plab olimlar tomonidan turli tomonlama tadqiq qilingan va o‘rganilgan. Shu asnoda jahon tilshunosligida aynan bu ikki jarayonning integratsiyasi hosilasi sifatida yangi lingvokognitiv jarayon metaftonimiyaning yuzaga kelishi borasida turli xil qarashlar va nazariyalar mavjud. Biz quyida aynan shunday nazariyalarning bir nechtasini ko‘rib chiqamiz va tahlil qilamiz.

Metafora va metonimiya o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar muammosiga qiziqish azal - azaldan jahon olimlari nazarida bo‘lgan. “Metaftonimiya” atamasi L.Gossens tomonidan 1990-yilda metafora va metonimiyaning integratsiyalashuvi (qo‘shilishi) holatlarini, ularning o‘zaro moslashuvi va kombinatsiyasini belgilash uchun kiritilgan. Metafora va metonimiyaning sintezi, metaftonimiya deb ataladi, matnni yaratish uchun ishlatiladigan stilistik hodisa hisoblanadi. [Goossens,1990:261]. Aynan bir tarkibda bu ikki jarayonning o‘zaro integratsiyalashib kuzatilishi matnga o‘zgacha bir stilistik bo‘yoq yuklaydi va tinglovchining ushbu jarayonni har doimgidan o‘zgacharoq anglashiga yordam

beradi. Paduchevaning fikricha, metafora ko'pincha metonimiyaning oqibatida paydo bo‘ladi va metonimiya metafora uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonni bilvosita nominatsiya usuli sifatida talqin qilish kognitiv semantika bo‘yicha tadqiq qilingan bir qator ingliz ishlarida berilgan. O‘zbek tilida bu hodisa hali to‘liq tahliliga yetgan emas. Shunday bo‘lsa-da badiiy matn namunalarini keltirib quyidagi nazariyalarga asoslangan holda metaftonomik ifodalarni aniqlashga harakat qilamiz:

Mehmon o‘zi kimdir?
— Abay, Jambuldir!
Mezbon o’zi kimdir — Jumanbulbuldir!
Fazogir Boyqo‘ng‘ir mehmondir bukun,
Olim Chirchiq esa mezbondir bukun.[Воҳидов,2001:2]

Yuqorida keltirilgan misralarda adib ***olim chirchiq*** metonimiyasini qo‘llaydi va bu o‘rinda ushbu birlik shahar aholisi ma’nosini beradi. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki ayni shu birlikda biz metafora hodisasini ham ko‘rishimiz mumkin, ya’ni shoir nazdida Chirchiqdagi odamlar olimga o‘xshatilyapti. Fikrlar tasdig‘i sifatida bu jarayon metaftonimiyani yuzaga chiqarganini guvohi bo‘lamiz. Metaforada metonimiya mavjud; o‘z navbatida, metonimiya ifodani kuchaytirish bilan birga oqilona qisqalikka ham hissa qo‘shadi. Bir ifodada ikki hodisaning birikuvi boyroq va obrazli til yaratishga yordam beradi. Ushbu birikmada o‘xshashlik va yaqinlik ma’nosi majoziy tarzda yoritilgan. Agar konseptual metafora "A - B" ideal kognitiv modeliga mos kelsa va kontseptual metonimiya “B” o‘rniga “A”ideal kognitiv modelga mos kelsa, kontseptual metaftonimiya "(B o‘rniga A) + (A - B) = X ” ideal kognitiv modeliga mos keladi.[Шарманова,2012:5] Jahon tilshunosligida metaftonimiya hodisasi turlicha sistemalar asosida talqin qilingan. Metaftonimiya yakka holda qo‘llanuvchi metafora yoki metonimiyalarga qaraganda ancha murakkab va ko‘p qirrali tasvirlarni yaratishga imkon beradi:

Men es-hushim yig‘masdan hali
Qulog‘imga dilbar kuy yetdi
Nakamuri – yapon go‘zali
“Tanovar”*ga* charx urib ketdi.[Воҳидов ,2001:64]

Yuqorida berilgan baytda adib ***tanovar*** metonimiyasini va bu birlik orqali kishilar ongida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan milliy kuyni ifodalab bergan. Shu bilan bir qatorda raqs harakatlarini gavdalantirish uchun ***charx urmoq*** metaforasini ifodaga olib kirgan va metaftonomik birikma hosil bo‘lgan , ya’ni *tanovar* aloqadorlikni asosida musiqani, charx urmoq esa o‘xshatish asosida raqsni

anglatadi. L. Gussens metftonimiyaning 3 turini ajratib ko‘rsatadi. Bular: metonimiyadan yuzaga kelgan metafora, metafora ichidagi metonimiya, metonimiya ichidagi metafora. [Шарманова,2011:195] G. Radden va F. Ruiz de Mendoza metafora va metonimiyaning o‘zaro ta’sirining bitta turini — metonimiya asosidagi metaforani ajratib ko‘rsatadilar. Har ikki tilshunos R. Yakobson tomonidan ilgari surilgan umumiy metafora-metonimiya kontinuumi doirasida blending, ya’ni konseptual qorishuv mavjudligini taxmin qiladilar. G. Raddenning fikricha, metafora va metoniyaning prototipik holatlari mazkur kontinuumning ikki qarama-qarshi qutbida joylashadi, ularning o‘zaro ta’siri kuzatiladigan holatlar esa kontinuumning markaziy qismida joylashadi [Radden, 2003: 93-108]. Metaftonimiya hodisasini turlarga ajratishda turli olimlar o‘z g‘oyalarini ilgari suradilar. Biz ushbu tasniflardan orasidan metaftonimiyaning 2 turini ajratib oldik. Bular: metaforadan metonimiya, ya’ni Gussens ta’rifiga asosan manba domen chegarasida semantik uzatish yuzaga keladi va metonimiya metafora bilan izohlanadigan butun manba sohasining elementiga aylanadi. Olimning ta’kidlashicha, ushbu turda til, og‘iz kabi tana a’zolari ishtirok etadi. Masalan: “Menga mukofot kerak emas, — tilga kirdi qalpoqcham...” misolida metonimik va metaforik ko‘chishlar o‘zaro uyg‘unlashgan. Metonimik birlik *“tilga kirdi”* ko‘chma konstruksiyasi tarkibida namoyon bo‘lgan. “Tilga kirmoq” birikmasi bu kontekstda “gapira boshlamoq”, “so‘zga qo‘shilmoq” ma’nolarini anglatadi. Unda “til” nutq faoliyati bilan bog‘lanib, nutq jarayoni obrazli tarzda “til”ga kirish harakati sifatida konseptuallashtirilgan. Shu sababli konstruksiyada metaforik va metonimik mexanizmlar bir-birini to‘ldiradi. Demak, mazkur misolda metaforik konstruksiya doirasida metonimik nomlashning qo‘llanishi kuzatiladi: “tilga kirdi” ko‘chma, obrazli konstruksiya sifatida, Bu holat metonimik va metaforik mexanizmlarning o‘zaro ta’siri, ya’ni metaftonimik konseptualizatsiyaning bir ko‘rinishi sifatida izohlanishi mumkin. Ikkinchi tur sifatida esa metonimiyadan metaforaga mansub birliklarni kiritdik. Masalan:

Toki boshliq zoti ekan haq,
Gapi gap-u so‘zi so‘z ekan,
To‘rdagilar hokimi mutlaq,
Pastdagilar yumuq ko‘z ekan [Воҳидов,2001:109]

misralarida “yumuq ko‘z” birikmasi metaftonimiyaning metonimiya ichidagi metafora turini namoyon etadi. Dastlab, “ko‘z” → “ko‘rish/idrok” munosabati asosida metonimik ko‘chish yuzaga keladi. Chunki ko‘z orqali insonning ko‘rish va idrok etish faoliyati ifodalanadi. Keyingi bosqichda

“ko‘rmaslik” jismoniy holatdan ijtimoiy-psixologik holatga ko‘chib, “voqelikka befarq bo‘lish, bo‘ysunish, faol munosabat bildirmaslik” ma’nosini anglatadi. Demak, metaforik ma’no metonimik asos negizida shakllangan: KO‘Z → KO‘RISH → KO‘RMASLIK → BEFARQLIK/BO‘YSUNISH. Shu sababli mazkur birlikni metonimiya ichidagi metafora sifatida baholash mumkin. Ushbu lingvokognitiv jarayonni tahlil qilar ekanmiz, metaftonimiya ikkita kognitiv mexanizmning integratsiyasi hosilasi sifatidagi hodisa ekanligini ko‘rishimiz mumkin va u o‘z navbatida so‘zlarning ma’nosini kengaytirishda yetakchi va muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Плотникова . А. М. Метафтонимия собственных имен в русском языке. Екатеринбург, Россия –2019

2. Goossens L. Metaphtonymy: the Interaction of Metaphor and Metonymy in Figurative Expressions for Linguistic Action // By word of mouth: metaphor, metonymy, and linguistic action in a cognitive perspective / Ed. by L.Goossens et al. Amsterdam, Philadelphia: Benjamins, 1990. P. 158-174.

3. Эркин Воҳидов. Сайланма. 2-жилд. Шеър дунёси. – Тошкент, 2001. – Б. 151.

4. Radden, G. How metonymic are metaphors? [Text] / G. Radden // Metaphor and Metonymy at the Crossroads: A Cognitive Perspective/ ed. by Antonio Barcelona. – Berlin; N.Y.: Mouton de Gruyer, 2003. – P. 93- 108

5. Ruiz de Mendoza, F. The role of mapping and domains in understanding metonymy [Text] / F. Ruiz de Mendoza // Metaphor and Metonymy at the Crossroads: A Cognitive Perspective/ ed. by Antonio Barcelona. – Berlin; N.Y.: Mouton de Gruyer, 2003. – P. 109-132.

6. Шарманова. О.С . Метафтонимия как концептуальное взаимодействие метафоры и метонимии. 2011

7. Нагорная А. В . Метафтонимия в сфере концептуализации эмоций в современном английском языке. 2013

8. Шарманова О. С. Метафора, метонимия, метафтонимия. способы концептуализации грузино-российского конфликта . Иркутск – 2012

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**